

# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020-yil yanvar-dekabr

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:  
**9 923,0 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati:  
**76,3 %**

### Asosiy kapitalga Investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:  
**1 473,0 mlrd. so'm**

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:  
**8 450,0 mlrd. so'm**

Joriy davrda 9 923,0 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 78,8 % jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 21,2 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:  
**682,8 mlrd. so'm**

Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi:  
**112,6 mlrd. so'm**

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:  
**677,6 mlrd. so'm**

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag'lari :  
**1 282,2 mlrd. so'm**

Korxona mablag'lari:  
**822,7 mlrd. so'm**


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:  
**864,5 mlrd. so'm**

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:  
**5 480,6 mlrd. so'm**

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yaʼni jami investitsiyalarning 55,2 % toʼgʼridan - toʼgʼri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, aholi mablagʼlari hisobidan 12,9 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablagʼlari 8,8 %, korxona va tashkilotlarning oʼz mablagʼlari 8,3 %, Oʼzbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 6,8 %, Respublika byudjeti 6,9 % va suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʼarmasi 1,1 % asosiy kapitalga investitsiyalar oʼzlashtirildi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan, % da)





## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>9 923,0</b>	<b>76,3</b>	<b>100,0</b>
Respublika byudjeti	682,8	90,2	6,9
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	112,6	76,6	1,1
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	677,6	102,8	6,8
Korxona mablag'lari	822,7	82,2	8,3
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	864,5	60,0	8,8
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	5 480,6	69,0	55,2
Aholi mablag'lari	1 282,2	122,1	12,9



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo</b>	<b>9923,0</b>	<b>76,3</b>	<b>100,0</b>
Oltinsoy	258,7	90,4	2,6
Angor	255,6	129,6	2,6
Bandixon	50,6	108,2	0,5
Boysun	3296,2	55,6	33,2
Denov	627,5	101,4	6,3
Jarqo'rg'on	505,8	70,2	5,1
Qiziriq	202,4	90,7	2,0
Qumqo'rg'on	313,6	113,7	3,2
Muzrabot	369,7	101,5	3,7
Sariosiyo	924,2	77,7	9,3
Termiz	777,2	103,2	7,8
Uzun	252,5	108,6	2,6
Sherobod	658,7	148,6	6,6
Sho'rchi	293,8	119,6	3,0
Termiz sh.	1136,5	80,2	11,5


**Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Sherobod tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 148,6 %, Angor tumanida 129,6 %, Sho'rchi tumanida 119,6 %, Qumqo'rg'on tumanida 113,7 %, Denov tumanida 101,4 % va Bandixon tumanida 108,2 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

jamiga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning oʼzlashtirilgan hajmi boʼyicha hududlar kesimida Boysun tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 33,2 % oʼzlashtirildi.


Shuningdek Boysun tumanidan keyingi oʼrinda Termiz shahri – 11,5 % ni tashkil etmoqda.

Sariosiyo va Termiz tumanlarida ushbu koʼrsatkich mos ravishda – 9,3 va 7,8 % ni tashkil etdi.

Sherobod hamda Denov tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi – 6,6 va 6,3 % ni tashkil etgan boʼlsa, Bandixon tumanida bu koʼrsatkich boʼyicha eng kami boʼldi – 0,5 %.




## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 6 131,2 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 3 267,1 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga - 524,7 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 7 045,4 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 71,0 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 2 065,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 20,8 % ini tashkil etdi. Qolgan 8,2 %, yani - 812,1 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 3 370,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 34,0 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 343,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,5 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish – 254,2 mlrd. so'm (2,6 %);

Tashish va saqlashda - 455,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,6 % o'zlashtirildi.



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiyalar	kreditlar			Investitsiya-lar	Kafolatlan-magan kreditlar
<b>Surxondaryo</b>	<b>6 158,2</b>	<b>4274,9</b>	<b>1883,3</b>	<b>4273,5</b>	<b>1207,1</b>	<b>1,4</b>	<b>1205,7</b>
Termiz sh. tumanlar:	482,8	107,3	375,5	105,9	205,9	1,4	204,5
Oltinsoy	118,4	40,1	78,3	40,1	74,4	-	74,4
Angor	101,8	14,1	87,7	14,1	76,7	-	76,7
Bandixon	16,9	15,1	1,8	15,1		-	
Boysun	3039,6	3015,8	23,8	3015,8	18,3	-	18,3
Denov	251,6	31,4	220,2	31,4	193,0	-	193,0
Jarqo'rg'on	146,9	49,1	97,8	49,1	96,0	-	96,0
Qiziriq	58,4	0,3	58,1	0,3	54,1	-	54,1
Qumqo'rg'on	156,4	49,2	107,2	49,2	64,4	-	64,4
Muzrabot	168,7	116,6	52,1	116,6	49,2	-	49,2
Sariosiyo	543,3	144,5	398,8	144,5	42,8	-	42,8
Termiz	351,1	146,5	204,6	146,5	185,6	-	185,6
Uzun	137,4	101,6	35,8	101,6	26,2	-	26,2
Sherobod	439,5	373,5	66,0	373,5	47,8	-	47,8
Sho'rchi	145,4	69,8	75,6	69,8	72,7	-	72,7

## Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Jamiga nisbatan, % da:




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi tog`-kon sanoati o’zlashtirilib, u 3 334,9 mlrd. so‘mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 54,1 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o’rinni qayta ishlash sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi boʻyicha – 1 195,1 mlrd. so‘m yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 19,4 % o’zlashtirildi.

Qishloq xo`jaligi faoliyati boʻyicha - 971,3 mlrd. so‘m, tashish va saqlash faoliyati boʻyicha - 244,4 mlrd. so‘m xorijiy investitsiya va kreditlar o’zlashtirilgan.

## Obyektlarni foydalanishga topshirish

### Ishga tushirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumi maydoni 1167,9 ming kv.m, bo'lgan 6415 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumi maydoni 914,2 ming kv.m bo'lgan 5293 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Denov tumanida ishga tushirilgan 156,2 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumi maydonning 13,4 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Sariosiyo va Sherobod tumanlari egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumi maydonning 11,2 va 9,2 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Bandixon tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 2,6 % ni tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni:

**(76) 225-65-59**